

## BUXORO ME'MORIY OBIDALARINI BADIY BEZASHDA AMALIY SAN'ATNING O'RNINI VA AHAMIYATI (XVIII-XX asrlar)

**Bakayev Shodijon Shokirovich**, Buxoro davlat universiteti, dotsent, Buxoro, O'zbekiston

### Annotatsiya

**KIRISH:** san'at juda qadim zamonlardan boshlab mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida shakillangan. Yaratuvchanlik va bunyodkorlik faoliyati jarayonida insonning tafakkuri kamol topadi, go'zallikni his etish ortib boradi. Amaliy bezak san'ati me'morchilik va hunarmandchilik bilan uyg'un tarzda rivojlangan, ijtimoiy taraqqiyotdagi katta o'zgarishlar san'atning jamiyat hayotidagi o'rnini belgilab bergan. San'at tarixiy jarayonlarda ma'lum vaqt g'oyaviy qurol sifatida hukmron tabaqalarning targ'ib etuvchi o'ziga xos kuchiga aylangan, lekin shunga qaramay u hayot go'zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarni kamol topishiga xizmat qilgan.

**MAQSAD:** markaziy Osiyoda Buxoro me'morligi merosi va uning amaliy bezak san'ati o'zining alohida o'rniga egaligi va qadimiy boy madaniyati hamda rang-barangligi bilan mashhur. Ushbu yodgorliklarni va milliy hunarmandchilik namunalarini asrab-avaylash doimo dolzarb masala bo'lib qoladi. Me'moriy obidalarga ikkinchi hayot baxsh etishda xalqimizning qo'li gul usta-me'morlari Sh.Murodov, A.Boltayev, A.Baqoyev, T.Arslonqulov, A.Hayotov, Sh.G'afurov, Q.Jalilov, B.Jo'rayev, U.Ikromov, M.Usmonov, A.Haqqulov va O.Yoqubovlar xizmati beqiyosdir. Ta'mirlash-restavratsiya san'ati binoni qurishdan o'n chandon mashaqqatli va og'ir yumushdir, chunki restavratsiyadan ko'zlangan asosiy maqsad me'moriy obidalardagi san'at asarlarining asliyatini to'laligicha saqlab qolishdir.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** ilmiy manbaalaragi mulohazalar tahlili; muayyan vaqtda barpo etilgan me'moriy inshootlarning tashqi ko'rinishi, shakl-shamoyili, qurilishi, tuzilishi, bezatilishiga qarab o'sha hududning qurilish ishlari amalga oshirilgan davrdagi tarixining ko'p jihatini o'rganish mumkin. Masalan, bino sifatli materiallardan mustahkam qurilgan, o'ziga xos me'moriy yechimga ega, chiroyli va hashamdor bezatilgan bo'lsa, bu o'sha davrda iqtisodiy rivojlanish bo'lganini anglatadi. Aksincha, inshoot arzon materiallardan tiklanib, yuzaki bezatilgan yoki umuman bezalmagan bo'lsa, bu o'sha davrning iqtisodiy ahvoli nochor bo'lganini anglatadi.

**NATIJARLAR VA MUHOKAMA:** XIX asr boshlaridan Buxoro me'morchiligida kuzatilgan ma'lum bir ijobiy siljishlar, albatta mamlakat hukmdorining e'tibori samarasi edi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, Mang'itlar hukmronligi davrida mavjud saroy va davlat mulki obidalarini saqlash uchun alohida mas'ul mulozimlar tayinlanib, ularning faoliyati qat'iy belgilangan. Davlat imoratlari xazinadan, diniy inshootlar esa vaqf mulklari hisobidan ta'mirlangan. Yirik mulkdorlar va zodagonlar tomonidan ham masjid va madrasalar barpo etilgan.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, o'sha davrda O'rta Osiyodagi uchala xonlikda ham qurilish-bunyodkorlik ishlari bir tekis kechmagan. Buxorodan farqli o'laroq, Xiva



xonligidagi yodgorliklar asosan XVII-XIX asrlarda barpo etilgan bo'lib, boshqa xonliklar me'morchiligidan ancha farq qilgan. Ayniqsa XIX asrda Xivada ulkan qurilish-bunyodkorlik ishlari amalga oshirilgan bo'lib, Buxoro va Qo'qon xonliklaridagi shaharsozlik ko'lami va badiiy qiymatidan nisbatan yaxshi bo'lgan.

**XULOSA:** o'rta Osiyoning boshqa hududlariga nisbatan Buxoro me'morchiligida masjid va madrasalardan tashqari maqbaralar ham alohida o'rin tutadi. Maqbara ulug' avliyolar, ulamolar, islom dini peshvolari, xon va amaldorlar, afsonaviy shaxslarning qabri ustiga tiklangan me'moriy inshootdir. Islom dini paydo bo'lgan dastlabki davrda qabr ustiga turli binolar qurish taqiqlangan, keyinchalik esa ular qurilishiga ruxsat berilib, bu joylar muqaddas ziyoratgohlarga aylantirilib, aksariyat xollarda masjidlar tarkibiga kirgan.

**KALIT SO'ZLAR:** buxoro me'morchiligi, Mang'itlar, Sitorai Mohi Xossa, Muzaffarxon, Abdulahadxon Amir Olimxon.

## РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ОФОРМЛЕНИИ АРХИТЕКТУРНЫХ ПАМЯТНИКОВ БУХАРЫ (XVIII–XX вв.)

**Бакаев Шодижон Шокирович**, Бухарский государственный университет, доцент  
Бухара, Узбекистан

### Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** искусство сформировалось с древнейших времён в результате развития трудовой деятельности человека. В процессе созидательной и творческой деятельности совершенствовалось мышление человека, усиливалось чувство прекрасного. Прикладное декоративное искусство развивалось в тесной взаимосвязи с архитектурой и ремесленничеством, а значительные изменения в общественном развитии определяли место искусства в жизни общества. В исторические периоды искусство нередко выступало как идеологическое средство в руках господствующих слоёв, однако, несмотря на это, оно изображало красоту жизни и способствовало формированию у людей высоких нравственных качеств и добродетелей.

**ЦЕЛЬ:** архитектурное наследие Бухары в Центральной Азии и её прикладное декоративное искусство занимают особое место, славясь древней богатой культурой и многообразием. Сохранение этих памятников и образцов национального ремесленничества всегда остаётся актуальной задачей. Неоценимый вклад в придание архитектурным памятникам «второй жизни» внесли народные мастера-архитекторы: Ш. Муродов, А. Болтаев, А. Бакаев, Т. Арслонкулов, А. Хайотов, Ш. Гафуров, К. Жалилов, Б. Жураев, У. Икромов, М. Усмонов, А. Хаккулов и О. Якубов. Искусство реставрации и ремонта во много раз сложнее и труднее самого строительства здания, поскольку главная цель реставрации — максимально сохранить подлинность произведений искусства, представленных в архитектурных памятниках.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** анализ научных источников; изучение внешнего облика, формы, конструкции, структуры и художественного оформления



архитектурных сооружений, возведённых в определённый период, позволяет выявить многие аспекты истории времени, в которое велось строительство. Например, если здание построено из качественных материалов, отличается прочностью, оригинальным архитектурным решением, красивым и роскошным убранством, это свидетельствует о высоком уровне экономического развития того периода. И наоборот, если сооружение возведено из дешёвых материалов, украшено поверхностно или вовсе не имеет декоративного оформления, это указывает на тяжёлое экономическое положение того времени.

**РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ:** положительные сдвиги, наблюдавшиеся в архитектуре Бухары с начала XIX века, во многом были результатом внимания правителей страны. В период правления династии Мангытская династия для сохранения дворцов и государственных объектов назначались специальные должностные лица, деятельность которых строго регламентировалась. Государственные здания ремонтировались за счёт казны, а религиозные сооружения — за счёт вакуфного имущества. Крупные землевладельцы и представители знати также строили мечети и медресе.

Следует отметить, что в трёх ханствах Средней Азии строительные и созидательные работы осуществлялись неравномерно. В отличие от Бухары, памятники Хивинское ханство в основном были возведены в XVII–XIX веках и значительно отличались от архитектуры других ханств. Особенно в XIX веке в Хиве были реализованы масштабные строительные проекты, которые по размаху градостроительства и художественной ценности в ряде случаев превосходили достижения Бухарского и Кокандского ханств.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** по сравнению с другими регионами Средней Азии, в архитектуре Бухары, помимо мечетей и медресе, особое место занимают мавзолеи. Мавзолей — это архитектурное сооружение, возведённое над могилой великих святых, учёных, религиозных деятелей, ханов и сановников, а также легендарных личностей. В ранний период становления ислама строительство зданий над могилами было запрещено, однако позднее оно было разрешено. Такие сооружения становились священными местами паломничества и зачастую входили в состав мечетных комплексов.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** бухарская архитектура, Мангытская династия, Ситораи Мохи-Хоса, Музаффархан, Абдулахад-хан, Амир Олимхон.

## THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF APPLIED ART IN THE ARTISTIC DECORATION OF ARCHITECTURAL MONUMENTS OF BUKHARA (18th–20th Centuries)

Bakayev Shodijon Shokirovich, Associate Professor, Bukhara State University  
Bukhara, Uzbekistan

### Annotation

**INTRODUCTION:** art emerged in ancient times as a result of the development of human labor activity. In the process of creative and constructive work, human thinking



improved and the sense of beauty increased. Applied decorative art developed in close harmony with architecture and craftsmanship, while major changes in social development determined the role of art in society. In certain historical periods, art functioned as an ideological tool in the hands of the ruling classes; nevertheless, it depicted the beauty of life and contributed to the formation of noble qualities and virtues in people.

**AIM:** the architectural heritage of Bukhara in Central Asia and its applied decorative art occupy a special place, renowned for their ancient, rich culture and diversity. Preserving these monuments and examples of national craftsmanship remains an actual and pressing issue. An invaluable contribution to giving a “second life” to architectural monuments was made by народные мастера-архитекторы such as Sh. Murodov, A. Boltayev, A. Baqoyev, T. Arslonqulov, A. Hayotov, Sh. G’afurov, Q. Jalilov, B. Jo’rayev, U. Ikromov, M. Usmonov, A. Haqqulov, and O. Yoqubov. The art of restoration is many times more complex and demanding than constructing a new building, since its main goal is to preserve the authenticity of the artistic works embodied in architectural monuments.

**MATERIALS AND METHODS:** analysis of scientific sources; examination of the external appearance, form, construction, structure, and decorative design of architectural structures built in a certain period allows researchers to study many aspects of the historical era in which construction was carried out. For example, if a building is constructed from high-quality materials, is structurally strong, has a distinctive architectural solution, and is beautifully and richly decorated, this indicates a period of economic prosperity. Conversely, if a structure is built from inexpensive materials and decorated superficially or not at all, it reflects economic hardship of that time.

**RESULTS AND DISCUSSION:** the positive developments observed in Bukhara’s architecture from the early 19th century were largely the result of the rulers’ attention to construction and preservation. During the rule of the Manghit dynasty, special officials were appointed to oversee the maintenance of palaces and state-owned monuments, and their duties were strictly regulated. State buildings were repaired at the expense of the treasury, while religious structures were maintained through waqf (endowment) funds. Wealthy landowners and nobles also sponsored the construction of mosques and madrasahs.

It should be noted that construction and urban development activities in the three Central Asian khanates were not uniform. Unlike Bukhara, the monuments of the Khiva Khanate were mainly built in the 17th–19th centuries and differed significantly from the architecture of other khanates. Particularly in the 19th century, Khiva witnessed large-scale construction projects which, in terms of urban planning and artistic value, were in some respects superior to those of Bukhara and Kokand.

**CONCLUSION:** compared to other regions of Central Asia, Bukhara’s architecture gives special prominence to mausoleums in addition to mosques and madrasahs. A mausoleum is an architectural structure erected over the grave of prominent saints, scholars, religious leaders, khans, officials, or legendary figures. In the early period of Islam, constructing buildings over graves was prohibited; later, however, it



was permitted. Such structures became sacred pilgrimage sites and were often incorporated into mosque complexes.

**KEYWORDS:** bukhara architecture, Manghit dynasty, Sitorai Mohi Xosa, Muzaffar Khan, Abdulahad Khan, Amir Alim Khan.

**S**an'at juda qadim zamonlardan boshlab mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida shakillangan. Yaratuvchanlik va bunyodkorlik faoliyati jarayonida insonning tafakkuri kamol topadi, go'zallikni his etish ortib boradi. Amaliy bezak san'ati me'morchilik va hunarmandchilik bilan uyg'un tarzda rivojlangan, ijtimoiy taraqqiyotdagi katta o'zgarishlar san'atning jamiyat hayotidagi o'rnini belgilab bergan. San'at tarixiy jarayonlarda ma'lum vaqt g'oyaviy qurol sifatida hukmron tabaqalarning targ'ib etuvchi o'ziga xos kuchiga aylangan, lekin shunga qaramay u hayot go'zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarni kamol topishiga xizmat qilgan. Markaziy Osiyoda Buxoro me'morligi merosi va uning amaliy bezak san'ati o'zining alohida o'rniga egaligi va qadimiy boy madaniyati hamda rang-barangligi bilan mashhur. Ushbu yodgorliklarni va milliy hunarmandchilik namunalarini asrab-avaylash doimo dolzarb masala bo'lib qoladi. Me'moriy obidalarga ikkinchi hayot baxsh etishda xalqimizning qo'li gul usta-me'morlari Sh.Murodov, A.Boltayev, A.Baqoyev, T.Arslonqulov, A.Hayotov, Sh.G'afurov, Q.Jalilov, B.Jo'rayev, U.Ikromov, M.Usmonov, A.Haqqulov va O.Yoqubovlar xizmati beqiyosdir. Ta'mirlash-restavratsiya san'ati binoni qurishdan o'n chandon mashaqqatli va og'ir yumushdir, chunki restavratsiyadan ko'zlangan asosiy maqsad me'moriy obidalardagi san'at asarlarining asliyatini to'laligicha saqlab qolishdir.

Ilmiy manbaalaragi mulohazalar tahlili: muayyan vaqtda barpo etilgan me'moriy inshootlarning tashqi ko'rinishi, shakl-shamoyili, qurilishi, tuzilishi, bezatilishiga qarab o'sha hududning qurilish ishlari amalga oshirilgan davrdagi tarixining ko'p jihatini o'rganish mumkin. Masalan, bino sifatlari materiallardan mustahkam qurilgan, o'ziga xos me'moriy yechimga ega, chiroyli va hashamdor bezatilgan bo'lsa, bu o'sha davrda iqtisodiy rivojlanish bo'lganini anglatadi. Aksincha, inshoot arzon materiallardan tiklanib, yuzaki bezatilgan yoki umuman bezalmagan bo'lsa, bu o'sha davrning iqtisodiy ahvoli nochor bo'lganini anglatadi.

XVIII asr ko'plab feodal urushlar va tarqoqliklar ham ichki ham tashqi hujumlar (Buxoroning Eron qaramiga aylanishi), qolaversa Ashtarxoniyalar sulolasi taxtdan qulatilib, hokimiyat tepasiga Mang'itlar sulolasining kelishi kabi siyosiy voqealar, qurilish va amaliy bezak sohasiga ham o'z salbiy ta'sirini o'tkazgan. Shu sabab, nafaqat saroylar hamda ulkan madrasa va masjidlar, balki boshqa yirik qurilish-bunyodkorlik ishlari ham deyarli to'xtab qolgan.

Hokimiyatni egallagan yangi sulolaning dastlabki vakillari markazlashgan davlat barpo etmasidan yirik qurilish ishlarini amalga oshira olmaganlar. XVIII asr oxiriga kelib, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot yana bir oz jonlangach, me'morchilik va amaliy san'atda

ham sezilarli ijobiy siljish kuzatilgan. Mang'itlar hukmronligidan qariyb yarim asr o'tgach, Buxoro XIX asr boshlaridagina o'zining avvalgi mavqei - yirik savdo va madaniy markazi ekanligini qayta isbotladi. Ammo, shunga qaramasdan bu davrda olib borilgan bunyodkorlik o'zining mahobati bilan XVI-XVII asrlarda barpo etilgan inshootlardan hajmining chegaralangani bilan farq qiladi. Yirik buyurtmalar yo'qligi xalq ustalari faoliyatini mahalla masjidleri va badavlat kishilarning uy-joyi qurilishi bilan cheklagan. Binolar qurilishida xalq ongiga singib qolgan qonun-qoidalar ustalar ijodini chegaralab, me'morlik sohasida ma'lum bir turg'unlik paydo bo'lish xavfini oshirgan. Shu sabab, ustalar o'z ijodlarida ma'lum darajaga yetganligi tufayli xalq ijodining sarchashmasi bo'lgan hunarmandchilikka murojaat qilishdi va bor e'tiborini badiiy bezash san'atiga qaratishgan.

XIX asr boshlaridan Buxoro me'morchiligida kuzatilgan ma'lum bir ijobiy siljishlar, albatta mamlakat hukmdorining e'tibori samarasi edi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, Mang'itlar hukmronligi davrida mavjud saroy va davlat mulki obidalarini saqlash uchun alohida mas'ul mulozimlar tayinlanib, ularning faoliyati qat'iy belgilangan. Davlat imoratlari xazinadan, diniy inshootlar esa vaqf mulklari hisobidan ta'mirlangan. Yirik mulkdorlar va zodagonlar tomonidan ham masjid va madrasalar barpo etilgan.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, o'sha davrda O'rta Osiyodagi uchala xonlikda ham qurilish-bunyodkorlik ishlari bir tekis kechmagan. Buxorodan farqli o'laroq, Xiva xonligidagi yodgorliklar asosan XVII-XIX asrlarda barpo etilgan bo'lib, boshqa xonliklar me'morchiligidan ancha farq qilgan. Ayniqsa XIX asrda Xivada ulkan qurilish-bunyodkorlik ishlari amalga oshirilgan bo'lib, Buxoro va Qo'qon xonliklaridagi shaharsozlik ko'lami va badiiy qiymatidan nisbatan yaxshi bo'lgan. Shunga qaramasdan, Mang'itlar sulolasi davrida ham Buxoro me'morchiligi o'ziga xos maktab va mahoratli ustalar mehnati evaziga betakror tarixiy-madaniy obidalar yaratilishiga sababchi bo'lgan.

O'sha kezlarda O'rta Osiyoda mavjud uchala bir-biridan mustaqil davlatlar me'morchiligi haqida so'z borar ekan, ularda barpo etilayotgan binolarning nima maqsadda qurilgani va foydalanilayotgani ushbu inshootlarni saqlanib qolishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Xususan, shaxsning qanchalik badavlat bo'lishiga qaramasdan aholi turar joylari va jamoat binolari davlat va diniy imoratlarga qaraganda ko'p saqlanmagan. Aholi turar joylari va jamoat binolari asosan hashar yo'li bilan jamoatchilik ishtirokida qurilgan bo'lib, aksariyat xollarda arzon materiallardan foydalanilgan.

Davlat va diniy inshootlar ma'lum siyosiy maqsadlarni ko'zlab mahobatli, ulug'vor va baland qilib qurilib, jamoat va turar joylarga nisbatan ko'rkam, chiroyli qilib bezatilgan. Davlat binolarini qurish va bezashda xorijlik elchilar va sayyohlarni hayratga solish, hukmdorning ulug'vorligini ta'kidlash va qudratini ko'rsatish hamda nomini abadiylashtirish asosiy maqsad qilib qo'yilgan bo'lsa, diniy inshootlar o'zining mahobatli ko'rinishi, ulug'vorligi va nafis bezalishi bilan dinga ishonchni kuchaytirishi lozim bo'lgan.

Ushbu tarixiy voqealar tufayli, o'rta asrlarda Buxoro shahrida bir qancha me'moriy obidalar bunyod etilib, betakror xalq amaliy san'ati namunalarining to'plandi. Asrlar davomida shakllangan an'analar va tajribalar me'morchilik bilan amaliy san'atning o'zaro uzviyiligi ta'minlanib, ikki yo'nalish bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lgan yaxlit tizimga



aylandi. Xususan, amaliy san'atda qo'llanadigan devor va peshtoqlarning koshin bilan qoplanishi hamda binoning ichki qismini bezashda ganchkorlikdan foydalanish faqat me'morchilikka xosdir. Bundan tashqari, pishgan g'ishtni turli shakllarda terish orqali o'ziga xos bezaklar hosil qilingan. Masjid va maqbaralar gumbaz shaklida yopilib, uning ichki va tashqi qismlari naqshinkor yoki rang-barang koshinlar bilan qoplangan.

Tadqiq qilinayotgan Mang'itlar sulolasi davri amaliy san'atining me'morchilik bilan o'zaro bog'liqligini badiiy uyg'unlik kesimida aks ettirish uchun yog'och o'ymakorligi, naqqoshlik va ganchkorlik alohida ko'rib chiqildi. Ushbu davrlarda Buxoroda ham O'rta Osiyodagi boshqa xonliklar singari me'morchilikda amaliy san'at eng ko'p qo'llangan inshootlar asosan hukmdorlar saroylari, madrasa va masjidlar bo'lib qolgan. Ammo, badavlat kishilar tomonidan qurilgan ba'zi turar-joy binolari ham alohida e'tiborga molik bo'lib (Fayzulla Xo'jayev uy-muzeyi), ushbu xonadonlar bezatilishi Buxoro amirligining so'nggi davrlarida an'anaviy amaliy san'ati qanchalik taraqqiy etganidan dalolat beradi.

Munozara. Buxoro me'morchiligida saroylar amaliy san'at qo'llanilishi jihatdan alohida ahamiyatga ega. Saroylar xar bir mamlakatning ma'lum darajadagi timsoli bo'lib, ularning vujudga kelishi ilk davlatchilik bilan bog'liqdir. Buxoro arxeologik tadqiqotlar asosida Konimex tumanida miloddan avvalgi VI-V asrlarga doir yodgorliklar (Chordara shahar xarobasi, Qumrabod - I, Qumrabod -II, Arabon -I, Arabon - II nomli mustahkamlangan qishloqlar, miloddan avvalgi VI asrga oid Shodibek va Qalqonota qo'rg'onlari) topib o'rganilgan. Ulardan topilgan hunarmandchilik va me'morchilikka doir ko'plab ashyoviy dalillar qadimda saroylar qanday bo'lganini aniqlash imkonini beradi.

Saroy tuzilishi jihatdan juda murakkab inshootdir. Ular ayrim jihatdan bir-biriga o'xshasa-da, aslida bir-biridan butunlay farq qiladi. Buxoroda hukmdorlari saroyi Ark qo'rg'onida joylashgan bo'lib, u bir necha asr hukmdorlarning davlatni boshqarishdagi asosiy markazi bo'lib kelgan. Afsuski, 1920 yilda M.V.Frunze boshchiligidagi qizil askarlar tomonidan amirlik zabt etilishi jarayonida qariyb 80 foizi aeroplanlar orqali shafqatsizlarcha bombardimon qilinishi va to'plardan o'qqa tutilishi natijasida tiklab bo'lmas darajada vayron qilingan. Hozirda uning atigi 20 foizini tashkil qiluvchi shimoli-g'arbiy qismidagi bino-inshootlar saqlanib qolgan bo'lib, ular Ark davlat muzey qo'riqxonasini tarkibiga kiradi.

Sitorai Mohi Xossa Buxoro amirlarining yozgi qarorgohi bo'lib, dam olish joyi sifatida qurilgan. Ushbu qarorgoh-saroyning asosiy qurilish-bunyodkorlik ishlari XIX asrning oxirida amir Abdulahadxon tomonidan boshlanib, oxirgi amir Olimxon tomonidan yakunlangan. Yozgi qarorgoh milliy va g'arb me'morchiligi uslublaridan foydalangan holda barpo etilgan. Eski saroy uch hovli va ko'pgina xonalardan iborat ansambldir. Keng va baland zalli Muzaffarxon mehmonxonasi hamda uning ikki tomonidagi boloxonali ayvonlar devoriy bezaklari va ranglarida motivlar uyg'unlashtirilgan.

Muzaffarxon va Abdulahadxon zallari badiiy bezaklarida o'xshashlik tomonlari mavjud. Amir Olimxon hukmronligi davrida sharq tomonda qurilgan bosh qarorgoh alohida me'moriy ahamiyatga ega. Koshin va rangli shisha bilan bezatilgan ushbu binoga tantanavor peshtoq – muhtasham toqli darvoza orqali kiriladi. Ba'zi binolar tashqi

ko'rinishi yevropacha uslubda qurilganiga qaramasdan, interyeri milliy uslub keng qo'llanilgan xolda bezatilgan.

Sharq Islom olamining o'rta asrlardagi eng katta, eng hashamdor va eng go'zal inshootlari masjid va madrasalardir. Islom dini vujudga kelishi bilan oq masjidlar qurila boshlagan. Lekin, madrasalar qachon qurila boshlanganini aniq aytish qiyin. Ayrim olimlar dastlabki madrasa Buxoroda X asrda qurilganligini ta'kidlaydilar.

**Xulosa.** Olib borilgan o'rganishlardan bilishimiz mumkinki, Buxoro o'zining ko'plab madrasalari bilan o'rta asrlardan buyon ma'lum va mashhur bo'lib kelgan. Shu sababli ham Buxoroga tashrif buyurgan sayyohlar va olimlar shahar to'g'risida gap ketganida avvalo uning shu jihatini ta'riflaganlar. Xususan, XVII asr tarixchi, geograf olim va [sayyohi](#) Mahmud ibn Vali Buxoroning ilm tarqatuvchi markaz sifatidagi xizmati va o'rnini quyidagicha baholaydi: «Olimlarning ko'pligidan, uni olimlar va ilm-fan bulog'i deb ataydilar». 1820 yilda Rossiya elchilari tarkibida Buxoroga safar qilgan rus harbiy topografi, naturalist-olim Ye.K.Meyendorf esa Buxoroning Markaziy Osiyoda tutgan o'rnini alohida ta'kidlab quyidagicha ta'riflaydi: "O'zining ko'plab maktablari, olimlari hamda muqaddas qadamjolari sababli musulmonlarning ziyoratgohiga aylangan. Ehtimol, shuning uchun u «sharif» nomiga sazovor bo'lgandir". Umuman, Buxoroni ta'riflar ekan, Ye.K.Meyendorf "Shahar ichra bo'y cho'zib turgan gumbazlar, masjidlar, baland peshtoqlar, madrasalar, minoralar, saroylar, ularning tishli devorlari, devor atrofidagi ko'l hamda tekis tom va bejirim hovlilari, paxsa bilan o'ralgan uylar va nihoyat, poytaxt tevaragida yastangan dalalar, bog'lar, daraxtlar va betinim harakat – bularning barchasi juda yoqimli taassurot qoldiradi", - deya yozib qoldirgan. J.Kunits ham Buxoroni "arab-eron madaniyatining qal'asi", Markaziy Osiyoning yuz yillik tarixidagi "Islomning yuragi", 250 masjid va 150 madrasalar markazi bo'libgina qolmay, yer yuzida muqaddas sanalgan shaharlarning "hukmdori" deya atagan.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Buxoroda me'morchilik maktabining o'zining xos jihatlaridan biri – bu bir o'q bo'yicha ro'para turuvchi ikki inshoot yaratish usulidir. Ushbu usulda Buxorodagi Qo'shmadrasa hamda Ulug'bek va Abdullaxon madrasalari yaqqol namunadir. Amir Shohmurod davridan boshlab madrasalar oliy, o'rta va quyi toifalarga bo'lingan. O'rta Osiy jadidchiligining yorqin nomoyondasi – taniqli o'zbek-sovet tarixchi va adabiyotshunos olimi, ilk o'zbek professori Abdurauf Fitrat amirlikning so'nggi yillarida Buxoroda oliy toifadagi 33 ta, o'rta toifadagi 39 ta va quyi toifaga mansub yuzdan ortiq madrasalar bo'lgani va ularda o'n mingdan ziyod talabalar tahsil olgan haqida ta'kidlagan. Shu bilan birga, 29 ta madrasa binosida bir vaqtning o'zida masjidlar ham mavjud bo'lgan.

O'rta Osiyoning boshqa hududlariga nisbatan Buxoro me'morchiligida masjid va madrasalardan tashqari maqbaralar ham alohida o'rin tutadi. Maqbara ulug' avliyolar, ulamolar, islom dini peshvolari, xon va amaldorlar, afsonaviy shaxslarning qabri ustiga tiklangan me'moriy inshootdir. Islom dini paydo bo'lgan dastlabki davrda qabr ustiga turli binolar qurish taqiqlangan, keyinchalik esa ular qurilishiga ruxsat berilib, bu joylar muqaddas ziyoratgohlarga aylantirilib, aksariyat xollarda masjidlar tarkibiga kirgan.

XX asr boshlarida Buxoro hududida 232 ta masjid va xonaqoh joylashgan bo'lib, hozirga qadar ularning 65 tasi saqlanib qolgan. Madrasalar binosi - 34 ta. Shulardan 2 tasi XV asrda, 5 tasi XVI asrda, 3 tasi XVII da, 6 tasi XVIII asrda. 11 tasi XIX asrda, 7 tasi XX asr boshlarida barpo etilgan. Me'moriy obidalar davriy oralig'i IX-X asrlardan boshlanib, to XX asrning boshlarini ham qamrab olgan. Buxoro viloyatida bugungi kunda 997 ta me'moriy va arxeologik yodgorlik mavjud bo'lib, ularning 660 tasi madaniy meros obyekti hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ремпель Л.И. Панджара. -Т.: Государственный издательство художественной литературы, 1957.
2. Бўронов Б.О. XIX асрнинг охири - XX асрнинг бошларида Бухоро тураржой меъморлигида нақш санъати: Санъатшунослик фанлари номзоди дисс. ... – Тошкент, 2007. – Б. 24
3. Раҳматуллаев Ю. Ўзбекистон меъморчилик обидалари Давлат муҳофазасида.–Тошкент: Ўзбекистон, 1969. – Б.5
4. Вахитов М.М., Мирзаев Ш.Р. Меъморчилик (I-қисм. Меъморчилик тарихи) – Тошкент: Тафаккур, 2010. – Б.149
5. Асророва Л.Қ. Бухоро мадрасалари тарихидан. - Тошкент: Ҳилол нашр, 2016. – Б. 13-14.
6. Me'moriy obidalarni badiiy bezashda kompozitsiyalari tuzilishining asosiy qonuniyatlari Bosma JOURNAL OF ADVANCED RESEARCH AND STABILITY (JARS) Volume: 01 Issue: 05 2021
7. Bakayev Sh.Sh.Me'moriy obidalarni badiiy bezashda naqsh kompozitsiyalari tuzilishining asosiy qonuniyatlari JOURNAL OF ADVANCED
8. RESEARCH AND STABILITY (JARS) Volume: 01 Issue: 05 2021
9. Jakhongir Batirov, Nigora Ibatova, Sherali Avezov, Shodijon Bakaev, Shukhrat Ramazonov CONTENT OF INNOVATION AND INNOVATIVE ACTIVITY OF THE TEACHER International Journal of psychosocial Rehabilitation
10. Bakayev Sh.Sh.Amaliy bezak san`ati. Buxoro. Durdona 2021y